

**O‘ZBEKISTONNING YUNESKO RO‘YXATIDAGI TARIXIY
SHAHARLARINING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI**

Shamshiddinova Dilnoza Anvar qizi
Termiz davlat universiteti Turizm
(ziyorat turizmi) yo‘nalishi
2-bosqich magistranti
E-mail: anvarovna111@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqola O‘zbekistonning YUNESKO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarining turizm rivojlanishidagi ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Ushbu shaharlarning tarixiy obidalari va madaniy merosi O‘zbekistonni xalqaro miqyosda tanitishda muhim o‘rin tutadi. Turizmning rivojlanishi orqali ushbu shaharlar milliy iqtisodiyotga ulkan hissa qo‘shib, mahalliy aholi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Barqaror turizm va ekologik muvozanatni ta‘minlash ushbu shaharlarning kelajak avlodlar uchun asrab-avaylanishida muhim rol o‘ynaydi. Maqola tarixiy obidalar ahamiyati, xalqaro sayyohlarni jalb qilish imkoniyatlari va turizmning iqtisodiy ahamiyatini batafsil yoritadi.*

***Kalit so‘zlar:** YUNESKO, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, tarixiy meros, madaniy boylik, me‘moriy yodgorliklar, xalqaro e‘tibor, iqtisodiy salohiyat, barqaror turizm, milliy rivojlanish, tarixiy obidalar, madaniyatlar chorrahasi.*

**ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ГОРОДОВ УЗБЕКИСТАНА В
СПИСКЕ ЮНЕСКО В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА**

***Аннотация.** Данная статья посвящена изучению значения городов Самарканд, Бухара, Хива и Шахрисабз, включенных в список Всемирного наследия ЮНЕСКО, в развитии туризма. Исторические памятники и культурное наследие этих городов играют важную роль в продвижении Узбекистана на международной арене. Развитие туризма способствует укреплению национальной экономики и созданию новых возможностей для местного населения. Устойчивый туризм и экологическое равновесие обеспечивают сохранение этих городов для будущих поколений. В статье подробно рассматриваются значение исторических памятников, привлечение международных туристов и экономическая важность туризма.*

***Ключевые слова:** ЮНЕСКО, Самарканд, Бухара, Хива, Шахрисабз, историческое наследие, культурное богатство, архитектурные памятники, международное признание, экономический потенциал, устойчивый туризм, национальное развитие, исторические памятники, перекресток культур.*

**THE IMPORTANCE OF HISTORICAL CITIES OF UZBEKISTAN ON
THE UNESCO LIST IN TOURISM DEVELOPMENT**

***Annotation.** This article explores the significance of Samarkand, Bukhara, Khiva, and Shakhrisabz, listed as UNESCO World Heritage Sites, in the development of tourism. The historical monuments and cultural heritage of these cities play a key role in promoting Uzbekistan on the global stage. Tourism development contributes to strengthening the national economy and creating new opportunities for local communities. Sustainable tourism and ecological balance are vital for preserving these cities for future generations. The article provides a detailed analysis of the importance of historical monuments, the potential to attract international tourists, and the economic impact of tourism.*

Keywords: UNESCO, Samarkand, Bukhara, Khiva, Shakhrisabz, historical heritage, cultural wealth, architectural monuments, international recognition, economic potential, sustainable tourism, national development, historical landmarks, crossroads of cultures.

KIRISH

O‘zbekiston – Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan, qadimiy tarix va boy madaniyatga ega mamlakat. Mamlakat hududidagi Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarining YUNESKO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi tarixiy va madaniy ahamiyatini tasdiqlaydi. Ushbu shaharlar o‘zining me‘moriy yodgorliklari, tarixiy merosi va madaniy boyliklari bilan dunyo tamaddunining ajralmas qismiga aylangan.

Ayni paytda O‘zbekistondagi 4 ta me‘moriy majmua YUNESKO Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan bo‘lib, bu esa umumiy tarixiy yodgorliklarimiz sonidan 0,4% ni tashkil etadi.

Vazirlar mahkamasining 2018-yil 9-iyun kuni “YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasidagi hududlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 435-sonli qarorni qabul qildi. Umumjahon madaniy va tabiiy merosni muhofaza qilish to‘g‘risidagi konvensiya 1995-yilning 22-dekabrida O‘zbekiston Respublikasi tomonidan ratifikatsiya qilingan. Konvensiya doirasida Xiva shahridagi “Ichan-qal’a”, “Samarqand – madaniyatlar chorrahasi” obyekt, Buxoro va Shahrisabz tarixiy markazlari hamda Chotqol biosferasi (tabiiy meros) Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan.

Turizmning rivojlanishi mahalliy iqtisodiyot, xizmat ko‘rsatish sektori va xalqaro aloqalarni kengaytirish uchun muhim vositaga aylangan. Ushbu maqolada YUNESKO ro‘yxatidagi shaharlarning turizm rivojlanishiga qo‘shayotgan hissasi, ularning xalqaro e‘tibordagi o‘rni va iqtisodiy hamda madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Barqaror turizm va tarixiy merosni asrab-avaylash bu shaharlarning uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur maqolada O‘zbekistonning YUNESKO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarining turizm rivojlanishiga qo‘shgan hissasi tahlil qilindi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlarni muhofaza qilish to‘g‘risida"gi qarorlari, YUNESKOning rasmiy hujjatlari va xalqaro tadqiqotlar asosiy manba sifatida ishlatildi. Shuningdek, milliy va xorijiy olimlarning ushbu shaharlar haqidagi ilmiy ishlariga tayanildi.

Adabiyotlarni tahlil qilish jarayonida Samarqand, Buxoro va Xivaning xalqaro e‘tirofga sazovor bo‘lishi va ularning tarixiy obidalari xalqaro sayyohlarni jalb qilishdagi roli o‘rganildi. Shahrisabzdagi Oqsaroy majmuasi hamda Buxorodagi

Ismoil Somoniy maqbarasi kabi obidalar iqtisodiy va madaniy rivojlanish nuqtayi nazaridan o'rganildi.

MUHOKAMA

O'zbekistonning YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan shaharlarining turizm rivojlanishidagi ahamiyati ulkan bo'lib, ular milliy va xalqaro darajada tarixiy va madaniy boyliklarni targ'ib qilishning eng muhim vositalaridan biridir. Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarining o'ziga xos tarixi, me'moriy obidalar va madaniy yodgorliklari xalqaro turizmni rivojlantirishda yetakchi rol o'ynaydi.

Samarqand YUNESKO tomonidan "Madaniyatlar chorrahasi" deb e'tirof etilgan bo'lib, uning Registon maydoni, Shohi Zinda majmuasi va Ulug'bek rasadxonasi dunyo bo'ylab sayyohlarni o'ziga jalb qilmoqda.

Ushbu obidalar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki xalqaro tadbirlar, masalan, "Sharq taronalari" festivali uchun asosiy maydon hisoblanadi. Samarqand xalqaro sayohatchilar tomonidan "Sharqning marvaridi" deb tan olinib, turizm sohasida barqaror rivojlanishni ta'minlamoqda.

2014-yil 7-iyul kuni Amerikaning taniqli «The Huffington Post» nashri «Dunyoning albatta borib ko'rish lozim bo'lgan 50 shahari» ro'yxatini e'lon qildi. Dunyoning eng mashhur shaharlari orasida «Sharq marvaridi» -Samarqand ham bor. Mazkur nashr reytingida qayd etilganidek «Registon maydonidagi madrasalar va qadimgi inshoatlardagi naqshlar Buyuk Ipak yo'lining ko'hna shahri-Samarqandni jahon islom me'morligining eng go'zal namunalaridan biriga aylantirilgan».

Ushbu reyting «The Huffington Post» nashri tomonidan minube.net sayohatchilar hamjamiyati bilan o'zaro hamkorlikda tuzilgan. Bundan ko'zlangan maqsad «Buyuk ko'hna poytaxtlardan tortib, to Osiyo, Amerika va ulardan tashqari dunyodagi eng a'lo joyni topish» bilan izohlanadi. Reyting mualliflarining fikr bildirishlaricha, odamlar o'z hayoti davomida albatta borib ko'rish lozim bo'lgan qadamjolar ro'yxatidan dunyoning 50 shahari joy olgan¹.

Buxoro O'zbekistonning diniy va madaniy markazi sifatida, tarixiy obidalar va diniy ziyorat joylari bilan mashhur. Islom dunyosida Buxoroning ismiga «Sharif» ya'ni «Muqaddas» qo'shimchasi qo'shib ishlatilgan. X asrda Buxoro eng yirik ilmiy va madaniy markaz bo'lgan. Mag'oqi Attori, Namozgoh masjidi, Chashmai Ayub kabilar ushbu davrdan yodgor bo'lib qolgan. Sitorai Mohi Xosa oxirgi Buxoro Amirining yozgi saroyi, u hashamatli arxitekturaning eng yorqin namunalaridan biridir. Labi Hovuz (XVI asr), Xo'ja Nasriddin haykali, Nodir Devonbegi madrasasi,

¹ «The Huffington Post» nashrining "Dunyoning albatta borib ko'rish lozim bo'lgan 50 shahri" maqolasi. Zarafshon. 2014- yil 10- iyul, № 83.

Devonbegi xonaqosi, Markaziy Osiyodagi yetakchi bo'lgan Ko'kaldosh madrasasi (Abdullaxon tomonidan bunyod etilgan) shahaming o'ziga xos diqqatga sazovor joylari hisoblanadi. Jsmoil Somoniy maqbarasi shahardagi yaxshi saqlanib qolgan eng qadimiy bino bo'lib, nafis arxitekturaga ega. Poyi Kalon ansambli (XII asr) shahaming markazidan o'rin olgan. Shu yerdan piyoda Ark binosiga, Chorminorga o'tish mumkin. Shahar atrofidagi Varaxsha xarobalaridan janglar va ov marosimlarini aks ettiruvchi ko'plab rangli lavhalar, qimmatli buyumlar topilgan va muzeylarga topshirilgan.

Xiva, Ichan-qal'a – O'zbekistonning tarixiy o'zbek shahri Xivaning mustahkam devor bilan o'ralgan ichki shahri bo'lib, Markaziy Osiyodagi birinchi umumjahon me'rosi obyektiga aylandi. Asrlar davomida qad rostlagan (eng qadimiy me'moriy yodgorliklar XIV asrga to'g'ri keladi), istehkom, saroylar, masjid, madrasalar, maqbara, minoralar, karvonsaroy va hammomlar Ichan qal'ani o'ziga xos yodgorlik shahriga aylantirdi.

Ichan qal'a qurilishida Xiva me'morlari O'rta Osiyoda qadimdan qo'llanib kelgan uslub – inshootlarni ro'parama-ro'para qurish uslubidan (qo'shdan) foydalanishgan. Masalan, Olloqulixon madrasasi bilan Qutlug' Murod inoq madrasasi, Sherg'ozixon madrasasi bilan Pahlavon Mahmud maqbarasi shu uslubda qurilgan. Ichan qal'a me'morligining yana bir o'ziga xos xususiyati binolarning alohida ansambl holida qurilganligi. Masalan, Juma masjid yonidagi ikkita kichik madrasa, Muhammad Amin inoq hamda Matniyoz devonbegi madrasasi ancha yirik ansambldir. Polvon darvoza oldidagi bir necha masjid va madrasalar, hammom, toqi, karvonsaroy va xon saroyi o'ziga xos ansamblni tashkil etadi. Qutlug' Murod inoq bilan Olloqulixon madrasasi, Tosh hovli bilan Oq masjid o'rtasidagi maydoncha shu ansamblning mujassamot markazidir².

Shahrisabz, Amir Temur davrining me'moriy yodgorliklarini saqlab qolgan holda, Oqsaroy saroyi va Dorus-Siyodat majmuasi bilan ajralib turadi. Ushbu shahar Temuriylar davri madaniy va iqtisodiy rivojlanishining yorqin namunasi bo'lib, xalqaro sayyohlarni o'ziga tortishda davom etmoqda.

Shahrisabz shahrining asosiy diqqatga sazovor joyi Amir Temurning mahobatli qarorgohi, qurilishiga qariyb chorak asr davom etgan Oqsaroy saroyidir. Dorut-Tillavat tasavvufning asoschilaridan biri, buyuk din arbobi, Amir Temur otasining ustoz Shamsiddin Kulol dafn etilgan joyda barpo etilgan eng qadimgi me'moriy yodgorlik, Muqaddas Qur'oni Karimni mulohaza yuritish va mutolaa qilish maskanidir.

² "Ичан-Кала (Ichan Qala)". www.tourister.ru

Tarixiy obidalarning YUNESKO «Jahon merosi» ro'yxatiga kiritilishining asosiy maqsadi o'z hududida mashhur bo'lgan obyektlarni dunyoga tanitish va himoya qilishdir. YUNESKOning «Jahon merosi» ro'yxatiga Xivadagi Ichan Qal'a 1990-yil, Buxoroning tarixiy markazi 1993-yil, Shahrisabzning tarixiy markazi 2000-yil kiritilgan. 2001-yil 12-16-dekabr kunlari Finlandiyaning Xelsinki shahrida YUNESKOning Jahon merosi Qo'mitasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib, unda Samarqand shahri ham YUNESKO ning «Jahon merosi» ro'yxatiga kiritildi³.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarining O'zbekiston turizm rivojlanishida asosiy rol o'ynayotganini ko'rsatdi. Ushbu shaharlarning YUNESKO ro'yxatiga kiritilishi ularga xalqaro e'tiborni oshirib, har yili minglab sayyohlarni jalb qilmoqda. Sayyohlar oqimi xizmat ko'rsatish sektori, jumladan mehmonxonalar, restoranlar, gidlik xizmatlari va transport infratuzilmasini rivojlantirishga olib kelmoqda.

Bu shaharlarning turizm rivojlanishidagi o'rni faqat iqtisodiy daromadni oshirish bilan cheklanmaydi. Ular xalqaro aloqalarni mustahkamlash, milliy madaniyatni targ'ib qilish va tarixiy yodgorliklarni kelajak avlodlar uchun saqlashda muhim rol o'ynamoqda. Barqaror turizm siyosati orqali ushbu shaharlar ekologik muvozanatni saqlashga xizmat qilmoqda. Sayyohlar oqimi xizmat ko'rsatish sektorini rivojlantirib, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratmoqda va iqtisodiy farovonlikni oshirmoqda. Shu bilan birga, ushbu yodgorliklar madaniy hamkorlikning mustahkamlanishiga ham katta hissa qo'shmoqda.

Natijada, Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarining xalqaro e'tirofi, tarixiy merosining qadrlanishi va turizm salohiyatining oshishi O'zbekistonning global turizm sohasidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

XULOSA

O'zbekistonning YUNESKO Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz shaharlarining turizm rivojlanishidagi ahamiyati ulkan. Ushbu maqom nafaqat tarixiy obidalar xalqaro miqyosda e'tirof etilishiga, balki mamlakatning turizm salohiyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Turizm sohasida xizmat ko'rsatishning rivojlanishi, jumladan, mehmonxonalar, restoranlar, gidlik xizmatlari va hunarmandchilik mahsulotlari savdosi mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Barqaror turizm siyosati ushbu shaharlarning ekologik muvozanatini ta'minlash, tarixiy merosni asrab-avaylash va sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratishda muhim

³ <https://ru.unesco.org/silkroad/content/shakhrisabz>

o‘rin tutadi. Har yili minglab xalqaro va mahalliy sayyohlarning tashrifi xizmatlar sohasida yangi imkoniyatlar yaratib, mahalliy aholining turmush darajasini yaxshilashga yordam bermoqda.

Xulosa qilib aytganda, YUNESKO ro‘yxatidagi shaharlar turizm orqali O‘zbekistonni xalqaro miqyosda tanitishda strategik ahamiyatga ega. Turizmning rivojlanishi milliy iqtisodiyot va madaniyatni yuksaltirishda, shuningdek, tarixiy va madaniy yodgorliklarni kelajak avlodlar uchun saqlashda katta rol o‘ynamoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Vazirlar mahkamasining “YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasidagi hududlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 435-son 09.06.2018 qarori.
2. I.S.Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh.Safarov, G.R.Tursunova “Turizm asoslari”.
3. “The Huffington Post” nashrining “Dunyoning albatta borib ko‘rish lozim bo‘lgan 50 shahri” maqolasi. Zarafshon. 2014- yil 10- iyul, № 83.
4. Bo‘riyev A. O‘zbekistonning Moddiy-Madaniy Merosi Obyektlarining Yunesko Umumjahon Madaniy Merosi Ro‘Yxatiga Kiritilish Tarixi International Scientific Journal Of Biruni ISSN (E) 2181-2993 Vol. 2, Issue 1. Feb. (2023).
5. “Ичан-Кала (Ichan Qala)”. www.tourister.ru
6. <https://ru.unesco.org/silkroad/content/shakhrisabz>